

NORDIC LIFE | 2023

2^{son}

Dekabr • Yanvar • Fevral



1 Muloqotlar
Choraklik hisobotlar

2 Muzokaralar
Jarayonlar tahlili

3 Munosabatlar
Muvaffaqiyat omili

XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

**NORDIK HAYOTI
NORDIC LIFE**

Toshkent - 2023

NORDIK HAYOTI/NORDIC LIFE

**Xalqaro Nordik universiteti rektori
Sh.Mustafakulov tahriri ostida**

Nashrga tayyorlaganlar:

M.Isaqova, O.Rahimberdiyev, R.Shodmonov

“Nordik layf” rukni ostida tayyorlangan mazkur broshyurada 3M – Muloqotlar – Muzokaralar - Munosabatlar modeli asosida 2023 yilning birinchi choragida amalga oshirilgan tadbirlar, o‘tkazilgan muzokaralar, xalqaro anjumanlarning mazmun-mohiyatiga tegishli bo‘lgan voqea-hodisalar qisqa satrlarda va jozibali foto suratlarda aks ettirilgan.

Shuningdek, unda Universitet hayotiga tegishli bo‘lgan tarixiy jarayonlar, jamoaning sa‘y-harakati bilan tashkil etilgan xalqaro tadbirlar, talabalarning oltin davriga tegishli bo‘lgan ko‘ngilochar dasturlar, Finlyandiya tashrif buyurgan delagasiyalar bilan bo‘lib o‘tgan muloqotlar, OAV, xususan gazetalarda chop etilgan qiziqarli maqolalar, televideniya berilgan intervyular, chop etilgan adabiyotlar taqdimoti ham o‘rin olgan.

Broshyura keng ommaga, XNUga tashrif buyuradigan mehmonlar, xorijiy hamkorlar uchun mo‘ljallangan.



INTILGANGA TOLE YOR!

WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!



KIRISH

Xalqaro Nordik universiteti tashkil topganiga sanoqli oylar bo'lgan bo'lsa-da, yillarga tatigulik salmoqli ishlarni amalga oshirishga ulgurildi. Bilimlar yaratish va bu bilimlar orqali jamiyat a'zolarining ilmini yuksaltirish, mavjud muammolarni tadqiq qilish va ularga ilmiy yechim topish bilan yurt rivojlanishga hissa qo'shishdek oliy maqsadlar yo'lida dadil islohotlarga kirishib ketdi.

Bu borada nafaqat respublikamiz hukumati va yetakchi tizimlar, balki Shimoliy Yevropa mamlakatlarning qator nufuzli tashkilotlari bilan ham uzoq istiqbolli strategik hamkorlik aloqalari o'rnatishga erishildi. **Buning ifodasini universitetga bo'lib o'tgan 30 dan ortiq nufuzli tashriflar, tuzilgan memorandumlar, xolis kuzatuvchilar, ekspertlarning fikrlari, yurtimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritilgan tahliliy maqolalarda ham ko'rish mumkin.**

Universitet xalqaro konferensiya, forum va qator tadbirlarga mezbonlik, tashkilotchilik qilganligi, oliygohimiz rahbariyatining mehnatlari hukumat darajasida e'tiroflarga sazovor bo'layotgani ham samarali mehnatlarning ilk quvonchli natijalaridir.

Shuningdek, professional ustozlar jamoasi qisqa fursat ichida talabalarda o'z tanlagan yo'nalishlariga ishtiyoq va mehr uyg'otib, sohalarida mehnat qilishning sir-asrorlari, murakkab jihatlarini ham ko'ra bilishni o'rgatmoqdalar.



Broshyuraning ushbu sonida universitetning qisqa davr – bir chorakdagi salmoqli chora-tadbirlari, har bir kundan yorqin iz qolayotgan qizg'in hayoti, yangi loyihalar, yangi tashabbuslarga to'liq faoliyati bilan tanishishingiz mumkin.

Sherzod Mustafakulov

*Xalqaro Nordik universiteti rektori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

MUNDARIJA

Kirish	3
Finlandiya beqaror dunyodagi barqaror davlat	4
Nordik so'zining ma'nosini bilasizmi?	4
O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 30 yilligi nishonlandi	5
Britaniya kengashi vakillari – xalqaro nordik universitetida	6
Helsinki universiteti vakillari tashrif buyurdilar	7
Istiqbolli hamkorlik aloqalari kengaymoqda	8
Amerika savdo palatasi vakillari bilan muzokara bo'lib o'tdi	9
Prezidentimizning tashabbusi bilan “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deb nomlangan 2023-yilni xushxabar bilan boshladik!	10
Turkiyaning Istanbul shahrida “Multi-level orders of corruption in Central Asia” loyihasi doirasida xalqaro Forum o'tkazildi	11
IAMO direktori bilan uchrashuv bo'lib o'tdi	11
Xalqaro Nordik universitetining ilmiy-amaliy elektron jurnali ta'sis etildi	12
Tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun xushxabar!	12
Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kengaymoqda	13
Musiqqa ta'limi yetuk ustozlar tomonidan beriladi	13
Yoshlar manfaatlari yo'lida – hamkorlik	14
Xalqaro Nordik universiteti yurtimiz ta'lim tizimi vakillari uchun Finlandiyaga sayohat va pedagogik trening tashkil etdi	15
Finlandiyaning Big Ear Games kompaniyasi bilan hamkorlik o'rnatildi	16
Xalqaro o'quv kursi: zamonaviy bilim va tajribalar o'rganilmoqda	17
Xalqaro o'quv kursi: zamonaviy bilim va tajribalar o'rganilmoqda	18
Angliyaning nufuzli universiteti bilan hamkorlik o'rnatildi	19
Xalqaro Nordik universiteti vakillari – Finlandiyada	20
Xalqaro Nordik universiteti UNICEFning hamkorlik dasturlarida ishtirok etadi	21
Muqobil energetika - maqbul yechim	22
"Nazm va navo" kechasi o'tkazildi	23
XNU hamkorligida Qo'qon shahrida istiqbolli loyiha amalga oshiriladi	24
Xalqaro Nordik universitetida – “Finlyandiya ta'lim kechasi” o'tkazildi	25
“Faxriy doctor” ilmiy unvoni topshirildi	30
Yuksalish sari tasodif bo'lmagan 100 ta uchrashuv	30
Har faslning o'z ziynati bor	31
OAV bilan hamkorlik	32

FINLANDIYA BEQAROR DUNYODAGI BARQAROR DAVLAT |1-dek.|

6-dekabr - Finlandiya Mustaqilligining 105 yilligi va O'zbekiston – Finlandiya diplomatik hamkorligining 30 yilligi tantanali nishonlandi.

Poytaxtimizdagi Radisson Blu mehmonxonasida Finlandiya elchixonasi tomonidan ushbu sanaga bag'ishlangan bayram tadbiri tashkil etildi.

Bu bayram Finlandiya parlamenti a'zolari, Finlandiya Tashqi ishlar vazirligi vakillari, Yevropa Ittifoqi davlatlari elchilari va O'zbekistondan diplomatik korpus vakillari, hukumat a'zolari, XNU rahbariyati ishtirokida tantanali nishonlandi.

Ma'lumot o'rnida, 6-dekabr – Finlandiya Respublikasi Mustaqillik kuni. Finlandiya 1917-yil 6-dekabrda mustaqillikka erishgan. 6-dekabr milliy bayram – Mustaqillik kuni hisoblanadi.

Shimoliy Yevropadagi bu davlatning poytaxti – Xelsinki. Davlat tili – fin va shved tillari.



Nordik so'zining ma'nosini bilasizmi?

"**Nordic**" atamasi mahalliy skandinaviya tilidagi "**Norden**" so'zidan olingan bo'lib, "**shimoliy orollar**" degan ma'noni anglatadi.

Mahalliy aholi "norbdo" deb ataladi, bu so'z "shimolliklar" degan ma'noni ifodalaydi.

Shimoliy Yevropa mamlakatlariga **Finlandiya, Islandiya, Norvegiya, Daniya, Shvetsiya va Farer orollari** (Daniya qirolligi tarkibidagi avtonom davlat sifatidagi orollar arxipelagi) kiradi.

Xalqaro Nordik Universitetining nomidan ham ma'lumki, oliygoh kelajakda talaba-yoshlar manfaatlarini yo'lida ushbu nordik davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlab boradi.

Mehnat va rag'bat yonma-yon...

Xalqaro Nordik universiteti rektori **Sherzod Mustafakulov** va Finlandiyaning O'zbekistondagi faxriy konsuli **Alisher Jo'rayevlar** O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri Nozimjon Husanov tomonidan Tashakkurnoma bilan taqdirlandi.



Universitetimiz rahbariyati 2022-yilning 22-23-noyabr kunlari Toshkent shahrida "Mehnat migratsiyasi xalqaro Forumi - 2022"dagi ishtiroki va uning yuqori saviyada tashkil etilishiga qo'shgan ulkan hissasi uchun hukumatimizning ushbu minnatdorchiligiga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi nishonlandi |7-dek.|

Ushbu muhim sana munosabati bilan tashkil etilgan anjumanda universitet rektori Sherzod Mustafakulov barchani bayram bilan samimiy qutladi.

Anjumanda talabalar tomonidan tayyorlangan badiiy dastur orqali Vatanimiz, Qomusimiz va faxr-iftixorimizga aylangan madhiyamiz ulug'landi.



Shuningdek, "Konstitutsiya - mening taqdirimda" mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovi g'oliblari taqdirlandilar.

Britaniya Kengashi vakillari – xalqaro Nordik universitetida |7-dek.|

Universitetga Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi direktori **Denise Waddingham** va uning o‘rinbosari **Jamiliya G‘ulyamova** tashrif buyurdi.



Universitet rahbariyati va nufuzli mehmonlar o‘rtasida kechgan muzokara davomida talaba-yoshlarga ommalashib borayotgan ta‘lim platformalaridan foydalanib, ingliz tilini yanada chuqurroq o‘rgatish, hamkorlikda o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish borasida so‘z bordi.

Buyuk Britaniyaning oliy ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha tajribasini ommalashtirish, Britaniya oliygohlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha o‘zaro manfaatli muloqot olib borildi.

Talabalar hayotidan... |12-17-dek.|

Kiber sport haftaligi o‘tkazilib, havaskor o‘yinchi-talabalar ishtirokida onlayn musobaqalar tashkil etildi.


Kiber jamoalar a‘zolari o‘yin strategiyalarini aniq belgilagan holda sport qoidalariga binoan o‘z xaritalari maydonini himoya qildilar. Kompyuter o‘yinlari qizg‘in kechdi.

Fast typing musobaqasida ishtirokchi-talabalarimiz o‘zaro sog‘lom raqobatga kirishib, klaviaturadan foydalanish tezliklari sinovdan o‘tkazildi.



Fast typing musobaqasida ishtirokchi-talabalarimiz o‘zaro sog‘lom raqobatga kirishib, klaviaturadan foydalanish tezliklari sinovdan o‘tkazildi.

Helsinki universiteti vakillari tashrif buyurdilar |17-dek.|



Chapdan: Akademik ishlar departamenti boshlig'i **Ulla Asikainen**, Finlandiya rektorlar Kengashi raisining o'rinbosari **Petri Raivo** va Xalqaro ishlar departamenti boshlig'i **Liisa Timonen**

Universitetimizning strategik hamkorlaridan biri Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti, Finlandiya rektorlar Kengashi raisining o'rinbosari **Petri Raivo**, Xalqaro ishlar departamenti boshlig'i **Liisa Timonen** va Akademik ishlar departamenti boshlig'i **Ulla Asikainen** tashrif buyurdi.

Uchrashuvda bu ko'p tarmoqli xalqaro va innovatsion universitet bilan tuzilgan qo'shma ta'lim dasturlari, ya'ni Sanoat menejmenti va Xalqaro biznes yo'nalishlarining o'quv-normativ hujjatlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, shuningdek professor-o'qituvchi va talabalar almashinuvi bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.



Istiqbolli hamkorlik aloqalari kengaymoqda |13-dek. |

Diplomatik missiya maslahatchisi, O'zbekistonning Shvetsiya qirolligidagi muvaqqat ishlar vakili **Nodir G'aniyev** ta'limga oid xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, oliygohimiz faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida tashrif buyurdi.

Nufuzli mehmon bilan uchrashuv chog'ida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi.



Raqamli ta'limning xorijiy tajribalari tatbiq etiladi |19-dek. |

Xalqaro Nordik universitetida EdTech va GraphoGame asoschisi, ekspert **Mervi Palander** bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Raqamli ta'limning zamonaviy yechimlarini yaratish va startaplar bilan ishlash bo'yicha 25 yillik xalqaro innovatsion tajribaga ega, GraphoGame platformasi asoschisi bilan onlayn ta'lim texnologiyalari va imkoniyatlari xususida fikr almashildi.

Uchrashuvda Finlandiya pedagogikasi bilan uyg'un, design xususiyatli CLANED platformasini O'zbekistonda tatbiq etish, o'quvchilar va talabalarni eng yaxshi natijalarga olib chiqishda hamkorlik qilishga kelishib olindi.



Noshirlik faoliyatini boshlash imkoniyati

Xalqaro Nordik universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining **N°045731 raqamli** Tasdiqnomasi asosida noshirlik faoliyatini boshlash imkoniyatiga ega bo'ldi.



Tasdiqnoma ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratilgan va eng yangi ilmiy yutuqlar, tadqiqotlarning borishi hamda natijalari haqida mutaxassislarga ma'lumot berish maqsadida tarqatiladigan yozma va bosma asarlar, ya'ni ilmiy fundamental tadqiqotlar, ilmiy asarlar, monografiyalar, dissertatsiya va referat kabi ilmiy nashrlarni chop etishga ruxsat beradi.

Universitetimizning ta'lim imkoniyatlari kengaymoqda

XNU O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining №051207 raqamli Tasdiqnomasi asosida maktabdan tashqari ta'lim faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ham ega bo'ldi.

Tasdiqnoma nodavlar maktabdan tashqari ta'lim, shu jumladan chet tillarini o'rgatish faoliyatini ko'rsatish, ona tili va adabiyoti, matematika, ingliz tili, umumiy pedagogika hamda iqtisodiy bilim asoslari kabi ilmiy turkumlarda o'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlashga ruxsat beradi.



Amerika savdo palatasi vakillari bilan muzokara bo'lib o'tdi |21-dek.|



Universitetimiz rahbariyati va Amerika savdo palatasi direktorlar kengashining katta maslahatchisi **Hugo Minderhoud** hamda AmCham O'zbekiston (American Chamber of Commerce in Uzbekistan) ijrochi direktori **Tatyana Bystrushkina** o'rtasida muzokara bo'lib o'tdi.

Muzokarada rivojlanishning muhim omili sifatida ta'limga oid istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari ko'tarildi.

Prezidentimizning tashabbusi bilan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlangan 2023-yilni xushxabar bilan boshladik!

Xalqaro Nordik universiteti rahbariyatining yoshlarimizning xalqaro darajada sifatli ta'lim olishlari yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlari bois yangi ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ochildi.

Yuqorida yangi yo'nalish va mutaxassisliklarimiz bilan tanishing. Albatta ta'lim olish istagidagi barcha yaqinlaringizga ham ushbu xushxabarimizni ulashish va yangi imkoniyatlarimizni yetkazishni unutmang!

BAKALAVRIAT YO'NALISHLARI:

- 60112700 – Maxsus pedagogika (logopediya)
- 60111300 – Musiqa ta'limi
- 60310900 – Psixologiya (amaliy psixologiya)
- 60411900 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar

MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI:

- 70110102 – Pedagogika va psixologiya
- 70110103 – Ta'lim muassasalarining boshqaruvi
- 70110501 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
- 70110201 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
- 70411901 – Jahon iqtisodiyoti
- 70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)



WHERE THERE'S A WILL, THERE'S A WAY!

Turkiyaning Istanbul shahrida "Multi-level orders of corruption in Central Asia" loyihasi doirasida xalqaro Forum o'tkazildi |4-yan.|



Shvetsiyaning Lund universiteti tomonidan o'tkazilgan forumda Xalqaro Nordik universitetining Foundation maktabi menejeri **Abdurauf Tolibov** qatnashdi.

Forumda dunyoning nufuzli universitetlari professor va tadqiqotchilarining loyiha bo'yicha ilmiy maqolalari, tadqiqot ishlariga oid ma'ruzalari tinglandi. Qizg'in munozaralar asosida xalqaro tajribalar almashildi.



IAMO direktori bilan uchrashuv bo'lib o'tdi |9-yan.|



Universitetimizda Germaniyaning IAMO ilmiy-tadqiqot instituti direktori, Qishloq xo'jaligi bozorlari bo'limi boshlig'i **Tomas Glaub** bilan uchrashuv o'tkazildi.

Suhbat chog'ida ta'lim va tadqiqotlar hamda hamkorlikda amalga oshiriladigan loyihalar xususida so'z bordi.



Universitetimiz Kengashining qaroriga muvofiq O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish Leybnits instituti (IAMO) direktori Tomas Glaubga universitetda ta'lim va tadqiqotlarni takomillashtirish hamda xalqaro almashuv dasturlarini rivojlantirishga qo'shgan ulkan xizmatlari uchun faxriy doktor unvoni berildi.

Xalqaro Nordik universitetining ilmiy-amaliy elektron jurnali ta'sis etildi



Xalqaro Nordik universitetining ilmiy-amaliy elektron jurnali ta'sis etildi

Tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun xushxabar! |7-yan.|

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining qaroriga muvofiq Xalqaro Nordik universiteti huzurida ilmiy daraja beruvchi **ILMIY KENGASH** tuzildi.

XNU huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/29.12.2022.1.157.01 raqamli ilmiy kengashga quyidagi ixtisosliklar bo'yicha dissertatsiyalar himoyasi o'tkazishga ruxsat berildi:

- 08.00.07 - "Moliya, pul muomalasi va kredit";
- 08.00.13 - "Menejment";
- 08.00.03 - "Sanoat iqtisodiyoti";
- 13.00.02 - "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" (iqtisodiyot fanlari).

XNU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) professor **Sherzod Mustafakulov** raisligidagi ilmiy kengashning 21 kishidan iborat tarkibi tasdiqlandi.

Oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik kengaymoqda |7-yan.|



Universitetimizga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Olimjon Murtazayev** tashrif buyurdi. U XNU ish tajribasi bilan yaqindan tanishtirildi.

Germaniya va boshqa xorijiy davlatlarning yetakchi oliygohlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan ushbu universitet bilan iqtisodiyotning turli sohalar uchun yetuk kadrlar tayyorlash borasida hamkorlikka kelishildi.

Musiqqa ta'limi yetuk ustozlar tomonidan beriladi

Universitetimizda O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi xalq artisti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, ko'plab san'at namoyandalarning ustози, el suygan va nazarga tushgan san'atkor **Munojat Yo'lchiyeva** bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ana'naviy xonandalik va maqom san'ati namoyandasi Munojat Yo'lchiyeva bilan universitetimizda yangi ochilgan Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabalariga sifatli ta'lim berish borasida fikr almashildi.

Ustoz san'atkor, faxriy professor universitetimiz ta'lim jarayonida bevosita ishtirok etib, talabalarimizga kasb sirlarini o'rganishlarida ustozlik qiladi.





Yoshlar manfaatlarini yo'lida - hamkorlik [14-yan.]

Universitetimiz rahbariyati va poytaxtimizning Yakkasaroy tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri **Dilfuza Mustafayeva** o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Davlatimiz rahbari tomonidan 2023 - **"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"**da amalga oshirilishi belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosida o'zaro hamkorlikning ahamiyati xususida fikr almashildi.



Xalqaro Nordik universiteti yurtimiz ta'lim tizimi vakillari uchun Finlandiyaga sayohat va pedagogik trening tashkil etdi |17-yan.|

Xalqaro Nordik Universiteti tomonidan Buxoro viloyati, Toshkent shahri va A. Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti ta'lim sohasi ekspertlari uchun Finlyandiyaning **Jyvaskyla** shahrida 2 haftalik amaliy trening tashkil etildi.

Tashrifning birinchi kuni Muurame fin o'rta maktabi o'quvchilari bilan muloqot o'tkazildi. "Muurame umumiy o'rta maktabida - tadbirkorlik" mavzusidagi treningda bu yo'nalishdagi fin tajribasi keng o'rganildi. Pedagoglarimiz Valteri ixtisoslashgan maktabida o'quvchilarga yaratib berilgan imkoniyatlar va inklyuziv ta'lim tajribalari bilan tanishdilar.

Fin maktablarida musiqa ta'limiga e'tibor katta. Chunki shaxs tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonlik ta'lim mutaxassislaru fin maktabida bo'lib, musiqa darsida bevosita qatnashishdi.

XNU hamkorligida Finlyandiya tajriba almashayotgan ta'lim tizimi vakillari Keljonkanjas o'rta maktabi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar.

Maktab direktorlari Tarja Seppälä-Pänkäläinen (5-7-sinflar) va Marja Hänninen-Helin (8-9-sinflar) bilan suhbatda bo'lib, fin ta'lim tajribalarini o'rganishga muvaffaq bo'ldilar.

Finlyandiya'dagi ko'plab maktablar singari ushbu maktabda ham o'quvchilar oyoq kiyimlarini yechib kiradilar. Ya'ni, o'quvchi sinf xonasini o'z uyidek ko'radi va ozoda saqlaydi.

Maktabda robototexnika darslari samarali tashkil etiladi. Darslarda android va windows tizimidagi qurilmalar uchun yaratilgan Spike Lego dasturidan foydalaniladi. Darsda yordamchi-o'qituvchi alohida ta'limga ehtiyojmand bolalar (kichik guruhda o'rganishni xohlovchilar) bilan individual mashg'ulot olib boradi. Fin maktablarida uyga vazifa faqat o'tilgan darsni takrorlash uchungina bajariladi, o'quvchilarga buning uchun baho qo'yilmaydi.




Finlandiyaning Big Ear Games kompaniyasi bilan hamkorlik o'rnatildi |20-yan.|

Kompaniya asoschisi va bosh direktori **Aviv Ben-Yehuda** bilan onlayn muloqot tashkil etildi.

Onlayn uchrashuvda universitetning yangi ochilgan "Musika ta'limi" yo'nalishi professor-o'qituvchilari, shuningdek **O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi qoshidagi MTTDMQTMOI rahbariyati** ham ishtirok etdi.

Muloqot chog'ida fin kompaniyasi tomonidan yaratilgan, yosh kompozitorlarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etayotgan mobil ilova taqdimoti tinglandi. Yevropa cholg'u asboblari yordamida musiqa mantiqini o'rganish xususida so'z bordi.



Ilmiy va innovatsion hamkorlik yangi yutuqlarga yo'l ochadi |17-yan.|

Universitetimizga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining Ilmiy va innovatsion faoliyatga oid dasturlarni shakllantirish va monitoring qilish boshqarmasi boshlig'i **Shuhrat Otajonov** tashrif buyurdi.

Muzokara chog'ida ilg'or xorijiy tajribalar, jahon ilm-fanining zamonaviy yutuqlarini o'rganish va tatbiq etish, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirish borasida fikr almashildi.



Xalqaro o'quv kursi: zamonaviy bilim va tajribalar o'rganilmoqda [25-29-yan.]

25-29-yanvar kunlari Xalqaro Nordik universiteti, DiDacTEC va NORDWAY ta'lim markazlari hamkorligida "Finlyandiyada ta'lim: maktablarda raqamli infratuzilma va o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish va xalqaro PISA tadqiqoti doirasida o'qitish usullari" mavzusidagi xalqaro o'quv kursi tashkil etildi.



Universitetimizda Qozog'iston Respublikasi maktab direktorlari va pedagog-o'qituvchilar uchun xalqaro o'quv kursi o'tkazildi.

O'quv kursi ochilishida XNU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Sherzod Mustafakulov** va Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektori **Ayubxon Radjiyev** ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tajribalarni o'rganishning ahamiyatiga to'xtaldilar.

Xalqaro o'quv kursi ma'ruzalarida maktablarda raqamli blokni baholashga yondashuv: raqamli infratuzilma, raqamli o'qitish usullarini ishlab chiqish, ta'limdagi vositalar va elektron kontentdan foydalanish bo'yicha zamonaviy bilim va tajribalar ko'rib chiqildi.

XNUNing katta tajribaga ega o'qituvchisi **Odilbek Kattayev** o'quv kursi ishtirokchilariga maktablarda raqamli blokni baholashga yondashuv borasida muhim saboqlar berdi.

O'quv jarayonlari interaktivlik asosida qizg'in kechdi. Pedagoglarda raqamli o'qitish usullari borasida yetarli ko'nikmalar shakllantirildi.



Xalqaro o'quv kursi: zamonaviy bilim va tajribalar o'rganilmoqda |25-29-yan.|



Xalqaro o'quv kursi doirasida Qozog'iston Respublikasining pedagoglari uchun poytaxtimizdagi "**Sehriyo**" nodavlat maktabiga tashrif uyushtirildi.

Zamonaviy maktabning o'quvchini davlat ta'lim standartlari va ijtimoiy, mantiqiy, badiiy, sport va texnik jihatdan rivojlantiruvchi xalqaro ta'lim dasturlari hamda platformalari asosidagi faoliyati bilan yaqindan tanishildi.



Shuningdek, **IT-Parkka** o'quv tashrifi uyushtirildi. IT Park mutaxassislari pedagoglarni rezident kompaniyalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, infratuzilma, IT-ta'lim, startaplar, xorijiy operatsiyalar bilan tanishtirdilar. IT Parkning ta'lim muassasalari bilan qo'shma ilmiy tadqiqot va akademik almashinuv ishlari, istiqbolli startap loyihalarni ishga tushirish va bozorga olib chiqishdagi ko'p qirrali faoliyatiga oid ma'lumotlar taqdim etildi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining bo'lim boshlig'i **Furkat Xolmirzayev** PISA tadqiqoti doirasida o'qitish usullari borasida trening o'tkazdi.



O'quv kursida samarali o'qitishga oid ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradigan TALIS, TIMSS va PIRLS tadqiqotlarining ahamiyati xususida so'z bordi.

Angliyaning nufuzli universiteti bilan hamkorlik o'ratildi |26-yan.|

G'arbiy Angliya universiteti (UWE Bristol) Bristol biznes maktabi professori **Dr. Qobil Ro'ziyev** bilan onlayn muloqot olib borildi.

Muloqotda ushbu universitet bilan professor-o'qituvchilar va talabalar almashish, iqtisodiyot, moliya va ilmiy yo'nalishlarda qo'shma dasturlar asosida hamkorlikni kuchaytirish borasida fikr almashildi.

Professor Qobil Ro'ziyev "Nordik" ilmiy-amaliy elektron jurnali tahrir kengashida faoliyat yuritadigan bo'ldi.



XNU rahbariyatining Karmana tumani va Zarafshon shahar maorif xodimlari bilan eksklyuziv uchrashuvlari bo'lib o'tdi |28-yan.|

Universitetimiz rektori, iqtisodiyot fanlar doktori, professor **Sherzod Mustafakulov** va Moliya ishlari bo'yicha prorektor **Nuriddin Murodullayev** Karmana tumani maorif xodimlari bilan uchrashdilar. Uchrashuvda tuman hokimi **Faxriddin Umarov** ham ishtirok etdi.

Muloqot chog'ida Finlandiya bilan hamkorlikda tashkil etilgan, fin modeliga asoslangan XNuning qabulga oid yangiliklari, o'rta maxsus ma'lumotli pedagoglar, ishlab chiqarish xodimlari uchun universitetda mavjud oliy ma'lumotli bo'lish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Zarafshon shahrida ham maorif xodimlari bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda shahar hokimi **Nazirbek Raxmanov**, shahar hokimi o'rinbosari **Obidjon Xakimov**, mutasaddi tashkilotlar rahbarlari va ta'lim tizimi xodimlari ishtirok etdilar.

Uchrashuvda ishtirokchilar fin modeliga asoslangan XNUda yaratilgan shart-sharoitlar, akademik va ilmiy sohalarni rivojlantirish bilan bog'liq amaliy ishlar, qabul tartiblari bilan tanishtirildi. Maorif xodimlari o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javoblar oldilar.

Universitetimiz rahbariyati Zarafshon shahar hokimi Nazirbek Raxmanov hamrohligida shahar Sanoat texnikumida bo'ldilar. Mazkur ta'lim maskani faoliyati, yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar va kutubxonada mavjud adabiyotlar bilan tanishildi. Tashrif davomida hududda yoshlarning kasb-hunar va mutaxassislik sirlarini o'rganishlari, oliy ta'lim olishlariga ko'maklashish borasida fikr almashildi.



Xalqaro Nordik universiteti vakillari – Finlandiyada |29-yan.1



Xalqaro Nordik universiteti va Finlandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti (o'rtasidagi strategik hamkorlik doirasida universitetimizning Xorijiy tillar kafedrasini mudiri **Muxlisa Shuhratova** Finlandiyada bo'ldi.

Bir haftalik tashrif davomida Kareliya universiteti Prezidenti, professor **Petri Raivo**, kafedralar professor-o'qituvchilari va talabalar bilan uchrashuv hamda muloqotlar olib borildi. Kareliya universitetining talabalarning amaliy bilim va ko'nikmasini oshirishga oid tajribalar bilan tanishildi.



Ta'lim mas'ullari bilan muloqotlarda kompetensiyaga asoslangan metodologiya, ta'limdagi uslubiy yondashuvlar borasida ma'lumot almashildi. Xorijiy til hamda aloqa fanlari va ularning maqsadlari xususida fin ustozlarining metodlari o'rganildi.

Kutubxonamiz fin tili darsliklari bilan boyitilmoqda

XNU hamkorligida Finlandiyada tashkil etilgan pedagogik trening davomida ta'lim mutaxassislari "Xalqaro ta'lim va bilimlar ko'rgazmasi"da ham ishtirok etishdi. Fin nashriyotlari, yangi kitoblar va innovatsion o'quv qurollari bilan keng tanishildi.

Finlandiyadagi hamkorlarimizning kitob tuhfalari universitetimiz Axborot-resurs markaziga yetib keldi.



Bir marta o'qib, tashlab qo'yish emas, aksincha hafta va oylar davomida tez-tez qaytish, o'zgarib borayotgan zamon nuqtai nazaridan tafakkur va tahlil qilishga arziqli kitoblar kutubxonamizga keltirilmoqda.

Kutubxonamizdagi kitoblar orqali oq nilufarlar yurti - Finlandiyaga sayohat qilish ham mumkin!

Yuksak axloq, mehnatsevarlik, ishlab chiqarish va poydevori mustahkam ta'lim tizimi orqali o'tuvchi yo'l fin xalqining yo'lidir.

Cheksiz quvonch bag'ishlovchi o'quv jarayoni, tanaffusda o'quvchilar bilan o'ynaydigan o'qituvchilar, ixtiyor erkinligiga ega bolalar - Finlandiya bolalaridir.

Axborot-resurs markazimizdagi "Oq nilufarlar yurtida" va "Finlandiya ta'lim mo'jizalari" kitoblari orqali o'zbek maktablarida qo'llasa bo'ladigan 33 ta fin strategiyasi bilan keng tanishish mumkin!

Xalqaro Nordik universiteti UNICEFning hamkorlik dasturlarida ishtirok etadi |9-fev.|

Diplomatik missiya maslahatchisi, O'zbekistonning Shvetsiya qirolligidagi muvaqqat ishlar vakili **Nodir G'aniyev** ta'limga oid xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, oliygohimiz faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida tashrif buyurdi.

Nufuzli mehmon bilan uchrashuv chog'ida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi.



"Work and Travel" dasturi doirasida "Ingliz tili kursi" ochildi!

Kurs mashg'ulotlari

→Kundalik hayotda turli vaziyatlarda duch keladigan muloqot mavzularida Listening, Speaking, Reading, Writing va Grammar ko'nikmalarini rivojlantirish;

→ Shimoliy Yevropa davlatlarida ishlab daromad topish va sayohat qilish (work and travel) imkonini beradi.

Kursda kunduzgi va sirtqi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalarimiz qatnashishmoqda. Har holda, "How are you from?" deyishmaydi! Kuchli istak va ishtiyoqli talabalar ingliz tilidagi bilimlarini rivojlantirmoqdalar!



WEB DASTURLASH kursi faoliyati yo'lga qo'yildi



Foundation maktabimizda ochilgan ushbu kursda HTML, CSS, bootstrap, JavaScript, React.js, Next.js, GraphQL, Node.js, Express.js, MongoDB tizimlari o'rgatiladi.

Kurs yakunida erishiladigan natijalar:

- Web saytlarning dizayn qismi;
- Landing page loyihalar;
- Startup loyihalar tayyorlash;
- FullStack dasturchiligi;
- Loyihalarni serverga yuklash, shuningdek, 30 dan ortiq onlayn platformalar, 50 dan ortiq dasturiy ta'minotlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Darslar Web dasturlash bo'yicha katta tajribaga ega ustoz tomonidan o'tilmoqda.

XNU xodimlarining kengaytirilgan yig'ilishi o'tkazildi |10-fev.|

Universitetda xodimlar manfaatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida boshlang'ich kasaba uyushma tashkilotini tuzishga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda jamoa kun tartibidagi 6 ta masala bilan tanishtirildi. Dastlab boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi a'zolari saylab olindi. Shuningdek, ishtirokchilar tomonidan qo'mita raisi va o'rinbosarlari, kasaba uyushmaning taftish komissiyasi raisi va komissiya tarkibiga eng munosib nomzodlar tavsiya etilib, ochiq ovoz berish yo'li bilan saylandi.

Quvvatov G'olibjon Baxtiyor o'g'li XNU boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi raisi etib saylandi.

G'olibjon Quvvatov (PhD) Yoshlar ishlari va talabalarga xizmat ko'rsatish departamenti boshlig'idir.

Uning nomzodi universitet boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi a'zolari tomonidan ilgari surildi va bir ovozdan qo'mita raisi etib saylandi.

G'olibjonning intellektual jihatdan kuchliligi, jamoa orasida haqqo'yiligi, faolligi, o'z vazifasiga qat'iy yondashishi bois obro' qozonganligi, xodimlar manfaatlarini yo'lida universitet rahbariyati bilan muzokaralarga kirisha oluvchi jihatlari e'tirof etilib, ushbu mas'ul vazifa ishonib topshirildi.



Muqobil energetika - maqbul yechim

Universitetimizda Toshkent davlat texnika universitetining Energetika fakulteti "Issiqlik energetikasi" kafedrasida assistentlari **Dilshod Rahmatov** va **Xusniddin Abduxalilov** bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda universitetda muqobil energetika - quyosh energiyasi panellaridan foydalanish taklifi muhokama qilindi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining afzalliklari xususida so'z bordi.



Universitetimizning 2-MMT-22 guruh talabasi Gulnora Madraimova "Ona" monolog (https://t.me/XNU_Dekanati/76) uchun hakamlar xulosasi va ko'pchilikning ovozi bilan #monologchallenge g'olibi bo'ldi!

! Gulnora Madraimova Jalaquduq tumanidagi 7-DMT uslubchisi. Bo'sh vaqtlarida ko'proq kitob oqish bilan mashg'ul bo'ladi. "Intilganga to'le yor" shiori bois qator yutuqlarga erishib kelmoqda. XNUda ustozlar ko'magida o'z bilim va ko'nikmasini oshirib, yanada malakali mutaxassis bo'lish yo'lida izlanmoqda.

"Nazm va navo" kechasi o'tkazildi |14-fev.|



Besh asrdan ortiq vaqt o'tibdiki, ulug' mutafakkirlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi hanuz keng o'rganilmoqda. Bu beqiyos ma'naviy xazinani tahlil, tadqiq qilib, bilim ahllari yetishib chiqmoqda.

Universitetimizda bu mutafakkir shoir va olim, davlat arboblarning tavalludlariga bag'ishlangan **"Nazm va navo"** kechasi o'tkazildi.



XNU rektori **Sherzod Mustafakulov** anjuman qatnashchilarini bu muhim sanalar bilan qutlab, yoshlarni ularning adabiy, ma'naviy "ummon"idan kengroq bahra olish, nazm va navo cho'qqilarini zabt etishga undadi.



Hayoti paydarpay yurishlarda kechgan bo'lsada, ajdodlariga munosib bunyodkorliklarni amalga oshirgan, sharq va jahon she'riyati, adabiyotida o'ziga xos o'rin egallagan dilbar shaxs - Bobur hamda Navoiyni o'qishning ahamiyatiga yoshlarning e'tibori qaratildi.



"Musika ta'limi" kafedrası professorı, O'zbekiston Qahramoni **Munajat Yo'lchiyeva** xalq orasida "Munajat" deb nom olgan "Kecha kelgumdir debon" g'azalini kuyladi.

Anjuman haqiqatdan ham "Nazm va navo" kechasiga aylandi.

Kecha videorolik, sahna ko'rinishlar namoyishi, kuy-qo'shiqlar, g'azalu ruboiylar, turli tanlovlar g'oliblarini taqdirlashga ulanib, bayramona kayfiyat hukmron bo'ldi.

Foundation maktabi tinglovchilari - Ice Cityda

Xalqaro Nordik universitetining Foundation maktabi tinglovchilari ma'naviy hordiq chiqarish maqsadida **Ice Cityga** tashrif buyurib, quvnoq kayfiyat bilan hamjihatlikda maroqli vaqt o'tkazishdi.

Ular bir oila - bir jamoa shukuhini tuydilar.

Foundationda katta imkoniyatlar bor!



Xalqaro Nordik universiteti Kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi |15-fevral|

Kengash yig'ilishi kun tartibidan universitet faoliyatiga oid o'ngacha yaqin dolzarb masalalar o'rin oldi.

"**Finlyandiya ta'lim kechasi**"ga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha mas'ullarning hisobotlari tinglandi.

Shuningdek, kun tartibidan o'rin olgan Finlyandiya Respublikasi Taraqqiyot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri **Villi Skinarri** va Finlyandiyaning O'zbekiston Respublikasidagi favqulotda va muxtor elchisi **Ilkka Raysenyanga** XNUning "**Faxriy doktori**" ilmiy darajasini berish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Kengash a'zolari tomonidan Kareliya amaliy fanlar universiteti bilan tuzilgan ikki tomonlama bitim va uning ijrosi xususida hamda talabalarning yozma nutqlarini rivojlantirishning innovatsion usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish to'g'risidagi masalalar muhokama qilindi.

Kafedralar professor-o'qituvchilarining xorijiy, respublika ilmiy loyihalari va tadqiqotlarda ishtirok etish tizimini takomillashtirish va boshqa ustuvor masalalar ko'rib chiqildi hamda tegishli qarorlar qabul qilindi.



XNU hamkorligida Qo'qon shahrida istiqbolli loyiha amalga oshiriladi |20-fevral|

Xalqaro Nordik universitetining hamkori - Finlyandiyaning "Kauko International" kompaniyasi direktori **Niiles Airola** Qo'qon shahriga tashrif buyurdi.

Ushbu kompaniya tomonidan fin texnologik yechimlari asosida Qo'qon shahrida "Chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish" loyihasini (qiymati - 24 mln euro) amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Qo'qon shahar hokimi Ma'rufjon Usmonov Niiles Airolani qabul qildi va Finlyandiyaning yashil texnologiyalarini Qo'qonda tatbiq etish borasida muzokara o'tkazildi. Unda fin kompaniyasining eng muvofiq yechimlarga integratsiyalashgan faoliyati xususida ma'lumotlar berildi.



Xalqaro Nordik universitetida - "Finlyandiya ta'lim kechasi" o'tkazildi [21-fev.]

O'zbekiston va Finlyandiya mamlakatlari ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini jadallashtirish maqsadida hamkorlik aloqalarini sifat jihatidan yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Finlyandiyaning qator ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda fin ta'lim tajribasini o'rganish va ularni mamlakatimizga samarali tatbiq etishga qaratilgan sa'y-harakatlar izchil amalga oshirilyapti. Finlyandiya bilan strategik hamkorlikda Xalqaro Nordik universiteti faoliyati samarali yo'lga qo'yilgani, universitet bazasida fin ta'lim ekspertlari ishtirokida yurtimiz ta'lim sohasi vakillari uchun doimiy tarzda onlayn va oflayn seminarlar o'tkazilayotganligi, pedagoglarning bevosita Finlyandiyaga borib malaka oshirishlariga ko'maklashilayotgani amaliy ishlar sirasidandir.

Joriy yilning 21-fevral kuni Xalqaro Nordik universitetida **"Finlyandiya ta'lim kechasi"** o'tkazildi. Ushbu anjuman ham yuqoridagi ishlarimizning uzviy davomi va kelgusida ko'plab yangi hamkorlik loyihalarining asosi bo'lib xizmat qilishi, hamkorlik doirasini yanada kengaytirishi, shubhasiz.

Kechaga Finlyandiyadan 50 nafar nufuzli mehmonlar, xususan, Finlyandiya Respublikasi Taraqqiyot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri **Ville Skinnari** hamda Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi **Ilkka Raysenyan**, Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti **Petri Rayvo**, yirik fin kompaniyalari rahbarlari tashrif buyurdilar.

Shuningdek, anjumanda O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari ishtirok etdilar.

Ma'ruzachilar poydevori mustahkam va sifat samaradorligi jihatidan yetakchilikka erishgan fin ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari, natijaga eltuvchi tamoyillari, eng ilg'or tajribalari va bu zamonaviy modellarni yurtimizda sohaga tatbiq etishning ahamiyatiga keng to'xtaldilar.

Universitetimizda "Finlyandiya ta'lim kechasi"ga tashrif buyurgan nufuzli mehmonlar ishtirokida **"Fin tili va madaniyati markazi"**ning tantanali ochilish marosimi o'tkazildi.

Ramziy mato ochilib, fin madaniyati durdonalari, fin mualliflarining kitoblarini o'zida jamlagan, bu mo'jizalar mamlakati xususida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi markaz hamda uning faoliyatiga oid rejalar taqdimoti bo'lib o'tdi. Fin madaniyati aks etgan bezaklar, ayniqsa finlyandiyalik mehmonlar ko'nglini faxr-iftixorga to'ldirdi.

"Finlyandiya ta'lim kechasi" doirasida Xalqaro Nordik universiteti va Kareliya amaliy fanlar universiteti o'rtasida bitim tuzilib, imzolandi.

Shuningdek, XNU rahbariyati va Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi hamda UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan Anglashuv memorandumlari imzolandi.



Ville Skinnari

Finlyandiya Respublikasi Taraqqiyot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri

Finlyandiyaning o'ziga xos muvaffaqiyati iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, ichki bozor va uni qo'llab-quvvatlaydigan savdo siyosatidan tashqari bilim kapitali, ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, bularning barchasi mamlakatimizning jahon maydonida kuchli tomonlari hisoblanadi. Jahon mamlakatlari, ayniqsa Finlyandiya – O'zbekiston mushtarak fikrli hamkorlar sifatida yangi qat'iyat bilan integrasiya yo'lida harakat qilmoqdamiz.

Delagasiyamiz bilan 21-23 fevral kungi yurtimizga tashrifimiz ham o'zbekistonlik hamkorlarimiz bilan ta'lim va biznes sohalarida umumiy yechimlar topishimizda muhimdir. Ayniqsa, O'zbekiston-Finlyandiya o'rtasidagi mustahkam hamkorlik platformasi – Xalqaro Nordik universitetiga tashrifimizdan bag'oyat mamnun bo'ldik. Universitetda o'tkazilgan anjuman O'zbekiston va Finlyandiya mamlakatlari o'rtasida kelgusida ta'lim hamda biznes sohasidagi hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirishga hissa qo'shadi.





Ilkka Raisanen

Finlandiyaning O'zbekiston Respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi



O'zbekiston chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritayotgani bois xorijiy davlatlar, ayniqsa Finlandiya bilan do'stona hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishmoqda. Kelgusida O'zbekiston-Finlandiya o'rtasida savdo, investitsiya, ayniqsa ta'lim sohalarida yanada yaqin hamkorlikning guvohi bo'lamiz. Jumladan, davlat xizmati xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, ta'lim sifatini baholash, ta'limni boshqarish hamda oliy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash kabi muhim yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga molikdir.




Petri Raivo

Finlyandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti

Kareliya amaliy fanlar universiteti O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlari, xususan Xalqaro Nordik universiteti bilan uzoq muddatli strategik hamkorlikni yo'lga qo'ydi. O'zbekistonga 21-23-fevral kungi tashrifimiz Kareliya va XNU hamkorligining yangi amaliy bosqichga ko'tarilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Universitetlarimiz o'rtasida tuzilgan bitimni imzolar ekanmiz, yurtimizda oliy ta'lim tizimi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish va yoshlar manfaatlarini, ta'lim-tarbiyasi yo'lida har jihatdan uzviy hamkorlikka tayyor ekanligimizni ma'lum qildik.

Kareliya universiteti va Xalqaro Nordik universiteti o'rtasida ikkita ta'lim yo'nalishi – Sanoat menejmenti va Xalqaro biznes ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qo'shma dastur faoliyati yo'lga qo'yildi. Kelgusida fin ta'lim tajribalari asosida ushbu yo'nalishlarda malakali mutaxassislar tayyorlashni maqsad qilganmiz.





Samu Seitsalo

Finlyandiya Milliy ta'lim agentligi direktori

O'zbekistonning qator davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda Finlyandiya milliy ta'lim agentligi o'rtasida yuqori darajadagi va samarali hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganligini ta'kidlashim joiz. Ayniqsa, so'nggi ikki yildan ortiq vaqt davomida har ikki mamlakat ta'limini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston va Finlyandiya ta'lim tizimi vakillari o'rtasida tajriba almashishga qaratilgan ko'plab seminar va treninglar tashkil etildi, O'zbekistonda ta'lim sifati va baholash tizimini takomillashtirish orqali Yevropa Oliy ta'lim hududiga kirish jarayonlarini takomillashtirish, fin mutaxassislarini jalb etishga e'tibor qaratilmoqda.

Yurtingizga bu galgi tashrifimizda Finlyandiya Respublikasi Taraqqiyot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri Villi Skinarri hamda Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Ilkka Raysenyan, Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti Petri Rayvo hamda yirik fin kompaniyalari rahbarlaridan iborat delegasiyamiz bilan Xalqaro Nordik universitetida o'tkazilgan "Finlyandiya ta'lim kechasi"da ishtirok etdik. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari bilan o'zaro muloqotda bo'ldik. Ushbu anjuman har ikki mamlakat ta'lim vakillari ishtirokida qo'shma ilmiy va akademik loyihalarni amalga oshirish, xalqaro grantlarda ishtirok etish, ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, bu galgi tashrifimiz ham samarali kechdi. O'tgan 2022 yilning 8 avgust kuni Toshkentda ochilgan, fin modeliga asoslangan Xalqaro Nordik universiteti bilan memorandum imzoladik. Universitetda "Fin tili va madaniyati markazi" ochilishida qatnashdik. Kelgusida markazda ikki nafar fin tili o'qituvchisining ilmiy faoliyat yuritishiga ko'maklashamiz.

"Faxriy doktor" ilmiy unvoni topshirildi |21-fev.|



Universitetimizda o'tkazilgan "Finlyandiya ta'lim kechasi"da strategik hamkorlarimizga **"Faxriy doktor"** ilmiy unvoni tantanali topshirildi.

Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulov Finlyandiya Hamkorlikni rivojlantirish va tashqi savdo vaziri **Ville Skinnari** hamda Finlyandiyaning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi **Ilkka Raysenyanga** universitetning **"Faxriy doktor"** ilmiy unvonini topshirdi.



Yuksalish sari tasodif bo'lmagan 100 ta uchrashuv |20-fev.|

Universitetimizda taniqli aktyor, bloger, "Yuksalish sari tasodif bo'lmagan 100 ta uchrashuv" kitobi muallifi **Otabek Mahkamov** hayotiy saboqlar va xulosalarini talabalar bilan bo'lishdi.

Talabalar erkin suhbat va motivatsion treningda 50 dan ziyod davlatda bo'lgan muallifning 100 ta qahramon - turli kasb egalari hayoti misolidagi saboqlaridan bahramand bo'ldilar. Shuningdek, kasb tanlash bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar berildi.



Har faslning o'z ziynati bor |25-fev|

XNU professor-o'qituvchilari va talabari finlyandiyalik ta'lim eksperti - Qashqadaryo viloyati hokimining ta'lim bo'yicha maslahatchisi Petri Lounaskorpi bilan **Amirsoy** kurort maskanida qiziqarli sayohatda bo'ldilar va kumush fasl tarovatidan bahra oldilar.

Finlyandiya tog'-chang'i kurortlari bilan ham mashhur bo'lib, finlar har doim faol va ekstremal dam olishni afzal ko'rishadi. O'quvchilar maktab paytidayoq chang'i uchishni o'rganishadi.

Finlyandiya modeliga asoslangan XNUda talabalar noakademik faoliyati tog'-kurort maskanida kechmoqda.

Qorli tog' qo'ynidagi zamonaviy tog'-chang'i dam olish maskanida haqiqiy qish zavqi his etildi. Chang'i yo'llarida uchilib, maroqli hordiq chiqarildi.



Yakuniy nazorat haftaliklari uyushqoqlik bilan o'tkazildi |27-fev|

Xalqaro Nordik universitetida sirtqi ta'lim shakli talabari uchun yakuniy nazorat imtihonlari o'tkazildi.

Talabalarga o'z ustilarida ishlashlari, imtihonlarga tayyorlanishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Mas'ullar tomonidan yakuniy nazorat tartiblari bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi. Test jarayonlari qat'iy nazorat asosida o'tkazilib, talabalarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajalari baholandi.



Xalqaro press-klub va Xalqaro Nordik universiteti hamkorligida "Finlandiya dunyodagi eng toza suvga ega davlat" ekanligi haqida maxsus ko'rsatuv tayyorlandi.

Xalqaro Nordik universiteti va Xalqaro press-klub hamkorligida Finlyandiya ta'lim tizimiga bag'ishlangan maxsus ko'rsatuv tayyorlandi.

"Oodi" markaziy kutubxonasi nimasi bilan ahamiyatli? Bu yerga bir kunda qancha kitobxon tashrif buyuradi deb o'ylaysiz? Kareliya amaliy fanlar universitetida tahsil olayotgan o'zbek talabalariga fin ta'lim tizimi ma'qul keldimi? Xalqaro press-Klub bilan hamkorlikda tayyorlangan maxsus ko'rsatuvda fin kutubxonalari, vatandoshlarimiz Finlyandiya qanday tahsil olayotganligi yoritildi.

OAV bilan hamkorlik



Dunyo miqyosida koronavirus pandemiyasi va undan keyingi global siyosiy-iqtisodiy maydondagi nobarqarorliklar ta'sirida iqtisodiy inqirozning chuqurlashayotgani, gender va etnik tengsizlik, global iqlim o'zgarishlari va muvozanatsiz o'sishdagi o'tkir muammolar zamonamiz oldiga jiddiy vazifalarni qo'ymoqda. Xalqaro Nordik universiteti olimlari - oliygo'ra rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Sherzod Mustafakulov** va Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i **Qobiljon Isayevlar** bu boradagi masalalarga inklyuziv yondashuv, inklyuziv iqtisodiy o'sish, inklyuziv bozor iqtisodi eng samarali yechim ekanligini qayd etishmoqda.

"Xalq so'zi" gazetasining 3-dekabr kuni sonida "Nuqtai nazar" ruknida chop etilgan maqolada Botswana, Finlandiya, Kanada, AQSh singari mamlakatlar inklyuziv ta'limining o'ziga xos jihatlari, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahliliy yoritilgan. Har bir insonga bebaho kapital sifatida baho berilib, ularning o'zgacha fazilat va imkoniyatlaridan ilm-fan va barcha jabhalardagi rivojlanish jarayonlarida unumli foydalanishning ahamiyatiga keng jamoatchilikning e'tibori qaratildi.

Yevropaning yashil poytaxti: xorijiy ekologik tajribalar |9-yan|

Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **Sherzod Mustafakulovning** ilmiy maqolasi yangi innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ilmiy ommabop jurnalda nashr qilindi.

Yashil iqtisodiyot va taraqqiyotga bag'ishlangan maxsus ilk sonda chop etilgan "Yevropaning yashil poytaxti" sarlavhali ushbu maqolada Finlandiyaning Laxti shahri xususida so'z borgan.

Ekologik ta'lim-tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rni qanday? Yevropadagi shaharlar qanday qilib atrof-muhitning barqarorligi va ekologik mo'tadillikni saqlagan holda rivojlanmoqda?

Maqola orqali shu kabi ko'plab savollarga javob topish mumkin. Zero, xorijiy tajribalar aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan jamoatchilik harakatini shakllantirishda muhim ahamiyatlidir.



Nuqtai nazar: ixcham va samarali davlat boshqaruviga o'tish - davr talabi |28-yan.|

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida birinchi ustuvor yo'nalish sifatida ixcham va samarali davlat boshqaruvi tizimiga o'tish masalasi ilgari surildi.

Shu asosda davlat boshqaruv tizimini optimallashtirish, ortiqcha va xos bo'lmagan funksiyalar hamda vazifalarni tugatish orqali markazlashtirishdan chiqarish, takroriylik va parallellikka barham berish, layoqatli, iqtidorli kadrlarni tanlab olish, mustaqil ravishda to'g'ridan-to'g'ri ishlash tizimi joriy etish borasida amaliy sa'y-harakatlar boshlab yuborildi.

Ma'muriy islohotlar nima uchun kerak? Davlatimiz rahbari nazarda tutayotgan tizimli boshqaruvga, avvalo, vazirliklar, idoralar tayyormi? Tizimli boshqaruvning eng asosiy shartlari bajariladimi?

Xalqaro Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafakulovning "Xalq so'zi" gazetasida nashr etilgan **"Ixcham va samarali davlat boshqaruviga o'tish - davr talabi"** mavzusidagi maqolasida shu kabi savollar atrofida fikr yuritilgan.



"Har inson - bebaho kapital" |18-fev.|

"Xalq so'zi" gazetasining 2023-yil 18-fevral kungi sonida Xalqaro Nordik universitetining Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i **Qobiljon Isayevning** imkoniyati cheklanganlarning barcha bilan teng bo'lgan huquqlarini yuzaga chiqarishga oid nuqtai nazari, tahlili va amaliy takliflari aks etgan maqolasi chop etildi.

"Har inson - bebaho kapital" sarlavhali maqolada kam daromadli insonlar (jamoalar)ga foyda keltiradigan barqaror inklyuziv biznes va mazkur sohaga oid muammolar yechimlarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.



"O'zbekiston – Finlyandiya hamkorligi yangi tendensiyalar asosida rivojlanmoqda" |23-fev.|

Xalqaro Nordik universitetida "Finlyandiya ta'lim kechasi" o'tkazildi.

XNU va Kareliya amaliy fanlar universiteti o'rtasida bitim, Finlyandiyaning Milliy ta'lim agentligi va UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rtasida Anglashuv memorandumi imzolash marosimlari o'tkazildi.

Oliyohimizda **"Fin tili va madaniyati markazi"** tantanali ochildi.

"Xalq so'zi" gazetasining 23-fevral kungi 37-sonida ushbu anjumanning maqsadi, O'zbekiston-Finlyandiya hamkorligini yangi bosqichga ko'tarishdagi ahamiyati va ishtirokchilarning fikr-mulohazalari keng yoritildi.



Sizni Xalqaro Nordik universiteti rektori eshitadi !

Xalqaro Nordik universiteti rektori Sherzod Mustafakulovning professor-o'qituvchilar, xodimlar, talabalar va ularning ota-onalari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotini amalga oshirish maqsadida virtual qabulxona boti faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ta'lim tizimiga oid, o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda uchraydigan muammolarning oldini olish, universitetni yaqin kelajakda yanada rivojlantirish, faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif, tavsiyalar va savollar bilan telegram ijtimoiy tarmog'ida XNU rektoriga **@Sh_Mustafakulov_bot** orqali murojaat qilish mumkin.

Takliflar shaxsan rektor tomonidan o'rganib chiqiladi.



INTILGANGA TOLE YOR!



Xalqaro Nordik universiteti missiyasi – zamonaviy bilimlarni berish orqali talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash, ularni raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish orqali jamiyat muammolarini yechishga ko'maklashish, xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va globallashtirish sharoitida ta'lim eksportini oshirishdan iborat!



@nordic_edu



www.nordicuniversity.org